

2022- yil uchun Sirdaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

YAHM hajmi,
mlrd. so'm

18 136,8

YAHM o'sish
sur'ati

105,0 %

YAHM deflyator
indeksi

114,6 %

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil uchun Sirdaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 18 136,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yil bilan taqqoslaganda 5,0 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yil narxlariga nisbatan 114,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Sirdaryo viloyatining qo'shgan hisyasi 2,0 % ga yetdi.



**2022- yil uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM
ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2021- yil	2022- yil	
I. YAHM, jami	15 071,5	18 136,8	105,0
shu jumladan:			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	14 640,9	17 540,9	105,0
mahsulotlarga sof soliqlar	430,6	595,9	106,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	14 640,9	17 540,9	105,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5 901,6	6 905,7	103,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	4 637,6	5 779,7	107,2
sanoat	3 483,1	4 375,3	109,5
qurilish	1 154,5	1 404,4	100,5
xizmatlar	4 101,7	4 855,5	105,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	660,6	790,5	105,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	489,0	569,6	111,2
boshqa xizmat tarmoqlari	2 952,1	3 495,4	103,7



YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 20 433,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,9 % ga yuqoridir.

**Aholi jon boshiga hisoblangan
YAHMning o'sish sur'atlari**
*(o'tgan yilning mos davriga
nisbatan % hisobida)*



**Aholi jon boshiga hisoblangan
YAHM hajmi**
(ming so'mda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2021- yil	2022- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,1	96,7
mahsulotlarga sof soliqlar	2,9	3,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	40,3	39,4
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	31,7	32,9
sanoat	23,8	24,9
qurilish	7,9	8,0
xizmatlar	28,0	27,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4,5	4,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,3	3,2
boshqa xizmat tarmoqlari	20,2	20,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2021- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

40,3%

Sanoat

23,8%

Qurilish

7,9%

Xizmatlar

28,0%

2022- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

39,4%

Sanoat

24,9%

Qurilish

8,0%

Xizmatlar

27,7%

2022- yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,3 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 39,4 % ni, sanoat tarmog'i 24,9 % ni, qurilish 8,0 % ni va xizmatlar sohasi 27,7 % ni tashkil qildi.



● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

2022- yil uchun YAHM o'sishida
tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

YAHM



5,0

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik
xo'jaligi



1,3

Sanoat



2,2

Mahsulotlarga
sof soliqlar



0,2

Xizmatlar



1,3




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,3 f.p. (2021- yilda – 1,5 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,2 f.p. (2021- yilda – 4,2 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,3 f.p. (2021- yilda – 2,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2021- yilda – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.



YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




2022- yil uchun YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 39,4 %), sanoatda – 109,5 % (24,9 %), qurilishda – 100,5 % (8,0 %), xizmatlar sohasida – 105,0 % ni (27,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 105,9 % (4,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 111,2 % (3,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,7 % dan (20,0 %) iborat bo'ldi.




YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi


(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




YAHM



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




2022- yilning YAHM deflyatori indeksi 2021- yildagi narxlarga nisbatan 114,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda – 121,0 % va sanoat tarmog'ida – 114,7 % qayd etildi.



Qurilish



Xizmatlar



**Kichik biznesning hajmi
va YAHMdagi ulushi**
(jamiga nisbatan %da)

	mlrd.so‘m	ulushi, % da
2021- yil	10 114,9	69,1
2022- yil	11 471,2	65,4

2022- yilda kichik tadbirkorlik 11 471,2 mlrd. so‘mni tashkil etib (2021- yilda – 10 114,9 mlrd. so‘m), YAHMdagi ulushi 65,4 %ni tashkil qildi (2021- yilda – 69,1 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

